

Dilbar PALUANIYAZOVA,

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti, tayanch doktoranti

E-mail: dilbarpaluaniyazova@gmail.com

Saydulla DADAYEV,

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, b.f.d., prof.

E-mail: s_dadaev@mail.ru

Qoraqalpoq davlat universiteti, biologiya fakulteti dekanı, professor Ya.I. Ametov taqrizi asosida

QORAQALPOG'ISTON MAYDA SHOXLI MOLLARI VA ULAR GELMINTLARI O'RТАSIDАГИ BIOSENOTIK MUNOSABATLAR

Annotatsiya

Olib borilgan tadqiqot ishlarimiz natijasiga ko'ra Qoraqalpog'ston sharoitida mayda shoxli mollarda gelmintlarning 37 ta turi uchrashligi, shulardan 34 turi qo'yylarda va 31 turi echkilarda parazitlik qilishi aniqlandi. Ma'lumki, gelmintlar rivojlanish jarayoniga qarab biologik guruhlarga bo'linadi, bu esa gelmintlar bilan ularning asosiy xo'jayinlari o'rtaсидаги biosenotik aloqalarini bog'lanishini tushunib yetishga yordam beradi. Ushbu maqolada Qoraqalpog'ston sharoitida mayda shoxli mollar va ularda parazitlik qiladigan gelmintlarni biosenotik aloqalarini o'rganish jarayunida gelmintlarni yuqumli elementlarini asosiy xo'jayinlariga o'tish yo'llari tahlil qilingan. Gelmintlarni ularning asosiy xo'jayinlariga o'tish yo'llarini yoritishda V.L. Kontrimavichus, 1969 va M.M. Tokobayev, 1973 klassifikatsiyalaridan foydalanildi.

Kalit so'zlar: Gelmintlar, biologik guruhlari, biosenotik aloqalar, trofik aloqalar, topik aloqalar, yuqumli elementlar, klassifikatsiya, geogelmintlar, biogelmintlar.

БИОЦЕНОТИЧЕСКИЕ ОТНОШЕНИЯ МЕЖДУ МЕЛКИМИ РОГАТЫМИ СКОТАМИ И ИХ ГЕЛЬМИНТАМИ

Аннотация

По результатам проведенных нами исследований установлено, что в условиях Каракалпакии у мелкого рогатого скота встречается 37 видов гельминтов, из них 34 вида паразитируют у овец и 31 вид у коз. Известно, что гельминты делятся на биологические группы в зависимости от процесса их развития, что помогает понять взаимосвязь биоценотических связей между гельминтами и их основными хозяевами. В данной статье проанализированы пути перехода инфекционных элементов гельминтов к своим основным хозяевам в условиях Каракалпакии в процессе изучения биоценотических взаимоотношений мелких рогатых скотов и паразитирующих на них гельминтов. Классификации В.Л. Контравичус, 1969 и М.М. Токобаев, 1973 были использованы для доказательства путей передачи гельминтов их основным хозяевам.

Ключевые слова: Гельминты, биологические группы, биоценотические связи, трофические связи, местные связи, инфекционные элементы, классификация, геогельминты, биогельминты.

BIOCENOTIC RELATIONSHIPS BETWEEN SMALL RUMINANTS AND THEIR HELMINTHS

Annotation

According to the results of our research it was found that in Karakalpakstan 37 species of helminths are found in small ruminants, of which 34 species parasitize sheep and 31 species parasitize goats. It is known that helminths are divided into biological groups depending on the process of their development, which helps to understand the relationship of biocenotic links between helminths and their main hosts. This article analyzes the ways of helminth infectious elements transition to their main hosts in the conditions of Karakalpakstan in the process of studying the biocenotic relationships of small horned cattle and helminths parasitizing them. The classifications of V.L. Kontrimavichus, 1969 and M.M. Tokobaev, 1973 were used to prove the pathways of helminth transmission to their main hosts.

Key words: Helminths, biological groups, biocenotic relationships, trophic relationships, local relationships, infectious elements, classification, geohelminths, biohelminths.

Kirish. Turli tabiiy sharoitlarda hayvonlarni gelmintlar bilan zararlanishi va ular xilma-xilligini belgilovchi asosiy omillardan hisoblangan xo'jayin va parazitlarning o'zaro biosenotik aloqalarini chuqur o'rganishdan iborat. Olib borilgan tadqiqot ishlarimiz natijasiga ko'ra Qoraqalpog'ston sharoitida mayda shoxli mollarda gelmintlarning 37 ta turi uchrashligi aniqlandi, shulardan 34 turi qo'yylarda va 31 turi echkilarda parazitlik qiladi [7]. Turli hududlarda mahsuldar hayvonlarni, jumladan mayda shoxli mollarni gelmintlar bilan zararlanishi albatta parazitlarning rivojlanish bosqichlari va ularni asosiy xo'jayinlariga yuqish yo'llarini aniqlash muhim ahamiyatga ega.

Hayvonlar gelmintlari, shu jumladan mayda shoxli mollar gelmintlari strukturasi xo'jayin va parazit o'rtaсида boradigan biosenotik munosabatga bog'liq.

Ma'lumki, gelmintlar rivojlanish jarayoniga qarab biologik guruhlarga bo'linadi, bu esa gelmintlar bilan ularning asosiy xo'jayinlari o'rtaсидаги biosenotik aloqalarini bog'lanishini tushunib yetishga yordam beradi. Barcha gelmintlarni rivojlanish bosqichlariga qarab, 2 ta yirik biologik guruhlarga, ya'ni geogelmintlar va biogelmintlarga bo'linadi. Geogelmintlar oraliq xo'jayinsiz, ya'ni barcha rivojlanish jarayoni bitta xo'jayinda boradi. Biogelmintlar esa 2 ta va 3 ta xo'jayinda rivojlanadi, ya'ni oraliq va qo'shimcha xo'jayinlar orqali boradi va ularni oraliq hamda qo'shimcha xo'jayinlari umurtqasiz va umurtqali hayvonlar hisoblanadi [8].

Keyingi yillarda bu biologik guruhlari qator olimlar tomonidan takomillashtirib borilgan [9,10,11,12 va bosh.]. Gelmintlarning sirkulyatsiyasi ma'lum bir biogeosenozlarda xo'jayin va parazit o'rtaсидаги trofik va topik aloqalar bilan bog'liq bo'ladi. Biz Qoraqalpog'iston sharoitida mayda shoxli mollar va ularda parazitlik qiladigan gelmintlarni biosenotik aloqalarini o'rganish asosida gelmintlarni yuqumli elementlarini asosiy xo'jayinlariga o'tish yo'llarini tahlil qildik.

Ishning maqsadi. Qoraqalpog'iston sharoitida mayda shoxli mollar va ular gelmintlari o'rtaсидаги biosenotik munosabatlarni tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqot materiallari va metodlari. Qoraqalpog'iston sharoitida gelmintologik tadqiqot ishlari 2021-2023 yillar davomida Ellikqal'a, Beruniy, Kegeyli, Chimboy, Qorao'zak, Taxtako'pir, Qo'ng'iroq, Qonliko'l, Moynaq, Amudaryo, To'rtko'l,

Taxiatosh, Shumanay, Xo'jayli, Nukus va boshqa tumanlaridagi chovachilik fermer xo'jaliklari hamda shaxsiy xonadonlarda 82 bosh qo'y va 95 bosh echki K.I. Skryabinning to'liq gelmintologik yorib ko'rish usuli asosida tekshirildi [1]. Shuningdek, to'liq va to'liq bo'Imagan gelmintologik yorib ko'rish usuli asosida qo'yarning 102 ta alohida organlari va echkilarning 110 ta alohida organlari tekshirildi. Mayda shoxli mollar gelmintlari tur tarkibini aniqlashda mahalliy va xorijiy olimilar ishlaridan foydalanildi [2,3,4,5,6].

Olingan natijalar va ularning muhokamasi. Qoraqalpog'ston sharoitida mayda shoxli mollarida parazitlik qiladigan 37 tur gelmintlardan 22 turdag'i nematodalar monoksen hisoblanib, yuqumli davridagi invaziya elementlari faqt og'iz orqali kirishi natijasida sodir bo'lishi mumkin, bunda yuqumli holdagi tuxum yoki lichinkalar tasodifan asosiy xo'jayinlari tomonidan yutiladi. 15 turdag'i gelmintlar esa, ya'ni barcha sestodalar, trematodalar va nematodaldardan-*Gongylonema pulchrum*, *Parabronema skrjabini*, *Setaria labiato-papillosa* va *Setaria digitata* turlari geteroksenlar hisoblanib, ulardan *Gongylonema pulchrum* va *Parabronema skrjabini* invaziv elementlari mayda shoxli mollarga suv yoki oziq-ovqat bilan zararlangan oraliq xo'jayinlarni yutish orqali sodir bo'ladi. Gelmintlardan-*Schistosoma turkestanicum* lichinkalari esa teri orqali faol harakat qilib kiradi. Nematodalardan - *Setaria labiato-papillosa* va *Setaria digitata* esa invaziya elementlari bilan zararlangan qon so'rvuchi ikkiqanotli hasharotlarni asosiy xo'jayinlariga hujum qilishi orqali kiradi.

Gel mintlarni ularning asosiy xo'jayinlariga yuqishi to'g'risida V.L. Kontrimavichus o'zining klassifikatsiyasini ishlab chiqqan. V.L. Kontrimavichus klassifikatsiyasi ko'ra gel mintlars asosiy xo'jayinlariga yuqishiga qarab 4 guruhga bo'linadi.

1. Gel mintlars asosiy xo'jayinlariga parazitni tuxumi yoki lichinkasi bilan zararlangan oraliq yoki rezervuar xo'jayinlarini ozuqa sifatida yeyish orqali o'tadi.

2. Gel mintlars asosiy xo'jayinlariga mechanik tarzda suv va oziq-ovqat orqali o'tadi.

3. Gel mintlars asosiy xo'jayinlariga faol holatda kiradi.

4. Gel mintlars asosiy xo'jayinlariga oraliq xo'jayinlari bilan oziqlanishi orqali o'tadi.

Qoraqalpog'ston mayda shoxli mollarida parazitlik qiluvchi gel mintlarni asosiy xo'jayinlariga o'tishimi V.A. Kontrimovichus klassifikatsiyasi bo'yicha tahlil qilinganda: I guruhga kiruvchi gel mintlars, ya'ni asosiy xo'jayinlariga parazitni tuxumi yoki lichinkasi bilan zararlangan oraliq yoki rezervuar xo'jayinlarini ozuqa sifatida yeyishi orqali o'tadigan gel mintlars Qoraqalpog'ston mayda shoxli mollarida qayd qilinmadni.

II guruhga kiruvchi gel mintlars, ya'ni invaziya elementlarini asosiy xo'jayinlariga mechanik tarzda suv yoki oziq-ovqat orqali yuqadiganlari Qoraqalpog'ston mayda shoxli mollarida keng tarqalgan, ya'ni 24 avlodga mansub (*Moniezia*, *Avitellina*, *Thysaniezia*, *Echinococcus*, *Alveococcus*, *Taenia*, *Multiceps*, *Fasciola*, *Gastrothylax*, *Trichocephalus*, *Chabertia*, *Oesophagostomum*, *Dictyocaulus*, *Trichostrongylus*, *Haemonchus*, *Marshallagia*, *Nematodirus*, *Teladorsagia*, *Ostertagia*, *Skrjabinema*, *Skrjabinodera*, *Gongylonema*, *Parabronema*, *Setaria*) 34 ta gel mint turlari kiradi.

III guruh gel mintlari, ya'ni asosiy xo'jayinlariga faol holatda kiradiganlariga misol qilib *Schistosoma turkestanicum* lichinkalarini ko'rsatish mumkin. Qoraqalpog'ston mayda shoxli mollariga *Schistosoma turkestanicum* trematoda lichinkalar teri orqali faol harakat qilib kiradi.

IV guruh gel mintlari, ya'ni zararlangan oraliq xo'jayinlari asosiy xo'jayinlariga oziqlanish uchun hujum qilganida yuqtiradi. Bu guruhga kiruvchi gel mintlardan Qoraqalpog'ston mayda shoxli mollarida *Setaria* avlodni vakillari kiradi (1-jadval).

Jadval 1

Qoraqalpog'ston mayda shoxli mollar gel mintlarining yuqumli elementlarini asosiy xo'jayinlariga yuqishiga qarab guruuhlar bo'yicha taqsimlanishi

Gu-ruh	Senotik aloqalar	Xo'jayinni zararlanishi	Turlar soni			
			Umumiy gel mint-lar soni	Sesto-dalar	Trema-todalar	Nemato-dalar
	Topik	Hayvonlarni yeyish (oziq-ovqat ob'ekt-lari sifatida)	—	—	—	—
		Tuxum yoki lichenkalarni tasodifiy yutish	34 (91,9%)	8 (21,6%)	2 (5,4%)	24 (64,9%)
		Lichenkalarning teri orqali faol kiritilishi		—	1 (2,7%)	
		Hasharotlarning chaqishi orqali yuqishi	2 (5,4%)	—	—	2 (5,4%)

Shunday qilib, Qoraqalpog'ston mayda shoxli mollarida asosan ikkinchi, uchinchi va to'rtinchchi biologik guruhlarga kiruvchi gel mintlars parazitlik qiladi. Shuni ham ta'kidlash lozimki, tabiatda invaziya elementlarini aylanishida va asosiy xo'jayinlarni gel mintlars bilan kasallanishida oraliq va qo'shimcha xo'jayinlar muhim rol o'yinaydi,

Keyinchalik, M.M. Tokobayev ham asosiy xo'jayinlar bilan ularning gel mintlari o'tasidagi biosenotik aloqalarni yanada takomillashtirgan [13]. Muallif gel mintlarni rivojlanishi va ularni yuqumli davrlarini asosiy xo'jayinlariga yuqishiga qarab 8 ta biologik guruhlarga bo'ladi. M.M. Tokobayev sistemasiga ko'ra Qoraqalpog'ston sharoitida mayda shoxli mollar va ularda parazitlik qiladigan gel mintlars o'tasidagi biosenotik aloqalar tahlil qilinganda quyidagicha ko'rinishga ega bo'ldi:

I guruh – gel mintlarni yuqumli elementlari tuxumi ichida shakllanadi, qaysiki tuxum asosiy xo'jayin ichiga tushgandan keyingina tuxumdan lichinka chiqadi. Bu biologik guruhga *Trichocephalus ovis*, *T. skrjabini*, *Skrjabinema ovis* va *Skrjabinema caprae* turlari kiradi (10,8 %).

II guruh – gel mintlarni yuqumli elementlari erkin holda o'simliklarda, tuproqda va boshqa joylarda tarqalgan. Bu biologik guruhga *Chabertia ovina*, *Oesophagostomum venulosum*, *O. columbianum*, *Dictyocaulus filaria*, *Trichostrongylus axei*, *T. vitrinus*, *Trichostrongylus sp.*, *Haemonchus contortus*, *H. placei*, *Marshallagia marshalli*, *M. mongolica*, *Nematodirus abnormalis*, *N. helvetianus*, *N. oiratanus*, *N. spathiger*, *Teladorsagia circumcincta*, *Ostertagia sp.* turlari kiradi (45,9 %).

III guruh – gel mintlarni yuqumli elementlari suvda erkin holda yashaydi. Bu biologik guruhga *Fasciola gigantica*, *Gastrothylax crumenifera*, *Schistosoma turkestanicum* turlari kiradi (8,1 %).

IV guruh – gel mintlarni yuqumli elementlari suvda yashovchi turli xil umurtqasiz hayvonlarda rivojlanadi (Qoraqalpog'ston mayda shoxli mollarida bu biologik guruhga kiruvchi gel mintlar qayd etilmadi).

V guruh – gel mintlarni yuqumli elementlari quruqlilikda yashovchi har xil bo'g'moyoqlilarda rivojlanadi - *Moniezia expansa*, *M. benedeni*, *Avitellina centri-punctata*, *Thysaniezia giardia*, *Gongylonema pulchrum* (13,5 %).

VI guruh – gel mintlarni yuqumli elementlari suvda yashovchi umurtqali hayvonlarda rivojlanadi (Qoraqalpog'ston mayda shoxli mollarida bu biologik guruhga kiruvchi gel mintlar ham qayd etilmadi).

VII guruh - gelmintlarni yuqumli elementlari quruqlikda yashovchi umurtqali hayvonlarda rivojlanadi - *Taenia hydatigena* (larvae), *Multiceps multiceps* (larvae), *Echinococcus granulosus* (larvae), *Alveococcus multicicularis* (larvae) (10,8 %).

VIII guruh - gelmintlarni yuqumli elementlari asosiy xo'jayinlariga hujum qiluvchi qon so'ruvchi ikki qanotli hasharotlarda rivojlanadi - *Setaria labiato-papillosa* va *Setaria digitata* (5,4 %).

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinish turibdiki, Qoraqalpog'ston mayda shoxli mollarida 6 ta biologik guruhga kiruvchi gelmintlar parazitlik qilishi aniqlandi.

Qoraqalpog'ston mayda shoxli mollarida gelmintlarni yuqumli elementlari suvda yashovchi turli xil umurtqasiz hayvonlarda rivojlanuvchi (IV - biologik guruh) va suvda yashovchi umurtqali hayvonlarda rivojlanuvchi (VI - biologik guruh) vakillari qayd etilmadi.

Qoraqalpog'ston mayda shoxli mollarida parazitlik qiluvchi trematodalar III biologik guruhga mansub bo'lib, bu guruhga *Fasciola gigantica*, *Gastrothylax crumenifera* va *Schistosoma turkestanicum* turlari kiradi (8,1 %).

Sestodalar V va VII biologik guruhlarga mansub, ya'ni gelmintlarni yuqumli elementlari, quruqlikda yashovchi har xil bo'g'moyoqlarda (*Moniezia expansa*, *M. benedeni*, *Avitellina centripunctata*, *Thysaniezia giardia* (10,8 %) va quruqlikda yashovchi umurtqali hayvonlarda rivojlanadi (*Taenia hydatigena* (larvae), *Multiceps multiceps* (larvae), *Echinococcus granulosus* (larvae), *Alveococcus multicicularis* (larvae)) (10,8 %).

Qoraqalpog'ston mayda shoxli mollarida parazitlik qiluvchi nematodalardan eng ko'p turlari II biologik guruhga mansub, ya'ni gelmintlarni yuqumli elementlari erkin holda o'simliklarda, tuproqda va boshqa joylarda tarqagan - *Chabertia ovina*, *Oesophagostomum venulosum*, *O. columbianum*, *Dictyocaulus filaria*, *Trichostrongylus axei*, *T. vitrinus*, *Trichostrongylus sp.*, *Haemonchus contortus*, *H. placei*, *Marshallagia marshalli*, *M. mongolica*, *Nematodirus abnormalis*, *N. helvetianus*, *N. orratianus*, *N. spathiger*, *Teladorsagia circumcincta*, *Ostertagia sp.* (45,9 %).

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinish turibdi-ki, Qoraqalpog'ston mayda shoxli mollarida parazitlik qiluvchi gelmintlarning asosiy xo'jayinlari organizmiga o'tish mexanizmi hamda gelmintofaunaning shakllanishida abiotik, biotik va ayniqsa antropogen omillarning katta ta'siri borligini olib borilgan tadqiqot ishlari natijalarida ham o'z aksimi topgan.

ADABIYOTLAR

- Скрябин К.И. Метод полных гельминтологических вскрытий позвоночных, включая человека. М.: Изд. МГУ, 1928. - 45 с.
- Азимов Д.А., Дадаев С.Д., Акрамова Ф.Д., Сапаров К.А. Гельмнты жвачных животных Узбекистана. -Ташкент: фан, 2015.- 223 с.
- Ивашкин В.М., Орипов А.О., Сонин М.Д. Определител гельминтов мелкого рогатого скота. - Москва, 1989. -256 с.
- Шульц Р. С., Гвоздев Е. В. Основы общей гельминтологии. М.: Наука, 1970. Т. 1. – 492 с.
- Шульц Р. С., Гвоздев Е. В. Основы общей гельминтологии. М.: Наука, 1972. Т. 2. – 516 с.
- Anderson R.C. Nematode parasites of vertebrates: their development and transmission. – New York, CAB International, 2000. – 650 p.
- Palo'aniyazova D.A., Dadayev S.D. Qoraqalpog'ston mayda shoxli mollari gelmintofaunasi. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi Djaloliddin Azimovich Azimovning 85 yoshga to'lishi munosabati bilan "O'zbekiston zoologiya fani: Hozirgi zamon muammolari va rivojlanish istiqbollari" mavzusidagi V - Respublika ilmiy-amaliy anjumanini to'plami. 2023. B. 94-96.
- Скрябин К.И., Шульц Р.С. Фасциолёзы животных и меры борьбы с ними. М., Сельхозгиз, 1935. -174 с.].
- Ошмарин П.Г. К изучению специфичной экологии гельминтов. Владивосток, 1959. -111 с.
- Контримавичус В.Л. Гельминтофауна кунных и пути ее формирования. М.: Наука, 1969. -431 с.
- Эркулов К.Э. Гельминтофауна наземных позвоночных животных высокогорной Киргизии. Автореф. дисс. ..канд. биол. Наук. Фрунзе, 1969. -26 с.
- Токобаев М.М. Гельмнты диких млекопитающих Средней Азии (Опыт эколого-географического анализа). Авторефер. дис...док. биол. наук. -Алма-ата, 1973. -44 с.].
- Рыковский А.С. Формирование гельминтофуны диких копытных в условиях культурного ландшафта Европейской части СССР. // Экология и география гельминтов. М.: Наука, 1974. С. 144-152.